



ORGANIZATION OF EXTRACURRICULAR ACTIVITIES IN PRIMARY SCHOOL CLASSES

Rozmamatova Mexriniso Xudoynazar qizi

Nukus state pedagogic institute Ellikqal'a pedagogic faculty primary
education

A.J.Janabergenova

Associate Professor of Mathematics Teaching Methodology Department
of Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

ARTICLE INFO

Received: 04th April 2024

Accepted: 08th April 2024

Online: 09th April 2024

KEY WORDS

*New textbooks, innovative
technologies, methods of
extracurricular activities,
conducted experiments,
mathematics club.*

ABSTRACT

*This article contains ideas about organizing
extracurricular activities, meaningful spending of
children's free time outside of school when working with
elementary school students.*

BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHNING MAZMUN VA MOHIYATI

Rozmamatova Mexriniso Xudoynazar qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Ellikqal'a pedogogika fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

A.J.Janabergenova

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Matematika o'qitish metodikasi kafedrası
dotsenti

ARTICLE INFO

Received: 04th April 2024

Accepted: 08th April 2024

Online: 09th April 2024

KEY WORDS

*Yangi darsliklar, innovatsion
texnologiyalar, sinfdan
tashqari ishlar metodikasi,
o'tkazilgan tajribalar,
matematika to'garagi.*

ABSTRACT

*Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan
ishlashishda sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish,
bolalarning darsdan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli
o'tkazish haqida fikr mulohazalar bildiriladi.*

Kirish

Bugungi rivojlanayotgan zamonamizda barcha sohaga yangidan yangi innovatsion texnologiyalar o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatmoqda. Misol tariqasida, eng katta o'zgarishlar asosan ta'lim sohasida ko'rinyapti. Yangi ta'lim metodlari, innovatsion usullari darsliklar va ularning multimedia mahsulotlari, yangi o'quv qo'llanmalari, kreativ bilim berish texnologiyalari joriy qilinmoqda. Bu amallar hech shubhasiz yosh avlodning savodli bo'lib



kamol topishi uchun zamin yaratadi. Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tabiri bilan aytganda "Bugungi kunda O'zbekistonning yangi taraqqiyot davri poydevorini yaratyapmiz. Bunda bizning eng yaqin ko'makchilarimiz ustoz va murabbiylar, ilmiy va ijodkor ziyolilardir" [1] Shu o'rinda prezidentimiz ta'lim sohasida zamonaviy texnologiyalardan foydalanmasak biz ko'zlagan cho'qqimizga yetolmasligimizni ta'kidlaydi: "Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgaraydi".[2]

Darhaqiqat, shiddat bilan rivojlanayotgan texnologiyalar zamonida eskicha ta'lim dasturiga tayanib ish ko'rish nafaqat yoshlarni zamondan ortda qoldiradi, balki, bir millat, bir davlatning yuksalishiga ziyon yetkazadi. Shu sababli rivojlangan davlatlarning ta'lim sistemasini o'rgangan holda, ulardan andoza olib, yangicha aytganda "idea" olib va uni milliyashtirgan holda ta'lim tizmi ishlab chiqishimiz kerak edi va 2020-yil 30- oktabrda bolib o'tgan videoselekrda dunyodagi zamonaviy o'quv dasturlari, o'qitish metodikalarini o'rganib, yurtimiz umumta'lim maktablarida joriy qilish muhimligi ta'kidlandi. Xalq ta'limi vazirligiga ushbu tajriba asosida Milliy o'quv dasturini ishlab chiqib, 2021/2022 o'quv yilidan boshlab ta'lim jarayoniga sinov tariqasida tatbiq etish vazifasi qo'yildi.[3]

Shu vazifa asosida 2020-yili 11-mayda "Milliy o'quv dasturi" hujjati tasdiqlandi [4] Bu hujjatda asosan o'qituvchining maqomini oshirish, o'quvchilarga yangicha bilim berish metodlari yaratish, o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish kabi ustivor vazifalar asosida yaratilgandir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Barkamol avlodni tarbiyalashda ularning nafaqat ta'lim olish jarayonida, balki, sinfdan tashqari ishlarda ham faol jalb eta olsakgina bizning oliy maqsadimiz bolgan "komil inson"ni yetishtira olamiz. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda asosan o'quvchilarning qiziqishlari hisobga olinishi kerak va eng asosiysi biz tashkil qilgan sinfdan tashqari mashg'ulotlarimiz aslo dars jarayonini takrorlamasligi kerak. Agar tashkil qilgan to'garagimiz dars jarayoniga o'xshab qolsa biz o'quvchilarni to'garaklar jalb qilolmasligimiz mumkin. Boshlang'ich sinflarda o'qitish metodikalari ishlab chiqqan ustozlarimiz M. E. JUMAYEVA, Z. G'. TADJIYEVA larning izlanishlariga ko'ra Matematika fanidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda eng muhim masalardan hisoblanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Matematika fanidan «sinfdan tashqari ish» deyilganda o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtda tashkil qilingan, dastur bilan bog'liq bo'lgan material asosida ixtiyoriylik tamoyiliga asoslangan mashg'ulotlar tushuniladi.

Matematikadan sinfdan tashqari ishlarning mohiyati va uning turlari

Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning matematik bilimlarini chuqurlashtirish va kengaytirish, murakkab misol va masalalami yechishni mashq qilish, matematikaning hayot bilan bog'liq bo'lgantomonlarini ochadigan va dasturga kirmagan ba'zi savollar bilan tanishtirishni maqsad qilib oladi.

Sinfdan tashqari ishlarning quyidagi turlari uchraydi: Matematik to'garaklar, olimpiadalar, qiziqarli matematik kechalar, matematik ekskursiyalar. Shuningdek, matematik gazetani chiqarish, matematik viktorina va burchaklarni tashkil qilish.

Sinfdan tashqari ishlar orqali quyidagilar amalga oshiriladi: bilimlarni va amaliy ko'nikmalarni chuqurlashtirish hamda kengaytirish; o'quvchilarning mantiqiy tafakkurlarini,



topqirliklarini, matematik ziyrakliklarini rivojlantirish; matematikaga qiziqishlarini orttirish, qobiliyatli va layoqatli bolalami topish, talabchanlik, irodani tarbiyalash, mehnatga muhabbat, mustaqillik, uyushqoqlik va insoniylikni tarbiyalash. Sinfdan tashqari ishlar darslarga nisbatan ba'zi farq qiluvchi xususiyatlarga ega:

1. O'z mazmuni bo'yicha matematika dasturiga taalluqli emas. Ammo beriladigan bilimlar o'quvchilarning kuchiga mos bo'lishi kerak.
2. Sinfdan tashqari ishlar imkoni boricha barcha o'quvchilarni jalb qilishi, ya'ni qiziqarli bo'lishi zarur. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar ham qiziqish yordamida faol o'quvchilarga aylanishi mumkin.
3. Sinfdan tashqari ishlar ixtiyoriylik tamoyiliga asosan tashkil qilinadi, lekin qiziqishni ta'minlash lozim. Bu mashg'ulotlarga baho qo'yilmaydi, ammo faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.
4. Mashg'ulot mazmuni va shakllariga qarab, 10-12 minutdan 1 soatgacha mo'ijallangan bo'lishi mumkin.
5. Sinfdan tashqari ishlarning mazmuni va shakllarining turlichamanligi.[5]

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda yuqoridagi professional o'qituvchilarimizning ishlab chiqqan qoidalari asosida yangicha metodlari ishlab chiqish zarur. Ayniqsa boshlang'ich ta'limda faqatgina dars jarayoni bilangina cheklanib qolish o'qituvchining eng katta xatosi bo'lib hisoblanadi. Afsuski, hozirki kunda ko'pchilik maktablarda sinfdan tashqari ishlar dolzarb muammoligicha qolmoqda. Bu muammolar quyidagilar:

1. Boshlang'ich sinflarda o'quv dasturi 5 kunlik sistemaga asoslanadi, ya'ni dars jarayonlari dushanbadan jumagacha davom etadi. Haftaning shanba kuni bolalar bilan kreativ g'oyalar asosida har xil qiziqarli ko'ngilochar, tarbiyaviy ahamiyatga ega tadbirlar, to'garaklar tashkil qilish kuni hisoblanadi. Lekin buni ayrim pedagoglar tushunmagan holda yondashadilar.
2. O'quvchilarni to'garaklarga jalb etishda asosan bolaning qiziqishlaridan kelib chiqish kerak.
3. Sinfdan tashqari darsimiz oddiy dars jarayoniga o'xshab qolsmasligi darkor.
4. Har bir mashg'ulotlarimiz oddiydan murakkabga qaray borishi va ilmiylik prinsipiga rioya qilishi lozim.

Boshlang'ich sinflarda ayniqsa Matematika fanini o'qitishga asosiy diqqatni qaratish kerak. Chunki, boshlang'ich matematika kursi, bir tomondan, bilimlarining boshqa sohalarida foydalaniladi va bolalarning rivojlanishiga yordam beradi. Shu bilan boshlang'ich bilimlar yagona majmuasini yaratadi, ikkinchi tomondan, zaruriy metodolik tasavvurlarni va fikrlashning mantiqiy tuzilishlarini shakllantirishga yo'naltirilgan.[6] Matematika bu aqlni charxlab asosiy fikr yuritishni oshiradigan fan hisoblanadi, lekin ko'pchilik o'quvchilarning qiynaladigan jihati ham aynan matematika fani. Nimaga deganda matematikada asosan amallar ketma- ketligi bir- biriga bog'liq holda qonuniyatga tayanadi shu jihatdan matematika zanjirga qiyoslanadi, agar bir zanjir donasi mustahkamlanmay bosh qolsa qolganlari ham mustahkam bo'lmaydi. Shuning uchun ham matematikadan sinfdan tashqari ishlarni yaxshi tashkillashtirish kerak. Bu jarayon ham sinf rahbarining dars jarayonida ishini osonlashtiradi ham o'quvchilar yaxshi tushungan mavzularini qiziqish bilan tinglashadi. Hamda faol bo'lishadi. Xulosa shundan iboratki, Matematika fanini chuqurroq o'rganish uchun 45



daqiqaning o'zi yetarli bo'lmaydi. Biz o'quvchilarni yanada rivojlartirishimiz uchun ular bilan kreativ g'oyalar asosida sinfdan tashqari mashg'ulotlarini ham yo'lga qo'yishimiz zarur.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrda bo'lib o'tgan "ta'lim-tarbiya tizimi" haqidagi videoselektrdagi nutqidan.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrda bo'lib o'tgan "ta'lim-tarbiya tizimi" haqidagi videoselektrdagi nutqidan.
3. Samaridin Barakayevich Qorayev, Marjan Smatillayevna Janbayeva "BOSHLANG'ICH SINF O'QISH DARSLARIDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH " 2021
4. Lex.uz sayti
5. M. E. JUMAYEV, Z. G'.TADJIYEVA" BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISH METODIKASI "TOSHKENT - 2005
6. M. E. JUMAYEV " Masalalar yechish bo'yicha praktikum" Toshkent " O'qituvchi " 2004